



TA'LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

B. Suvankulov

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent

Annotatsiya. Mediata'lim inglizcha media "edustation" so'zidan bo'lib, lotincha media – omil deganidir. Mediata'lim o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Mediapedagogika – yangi pedagogik texnologiyadir, u ommaviy axborot vositalari yordamida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi. Mediapedagogika resurslariga internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radioeshittirishlar, kino, video, audio materiallar kiradi.

Mediata'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradi, oddiy yo'nalishlardagi mediaaxborot tilini o'rganish, o'quvchining badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, mediamatnlarni qabul qilish, o'rganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Bu pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish – mediata'lim paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Olimlar mediata'lim talabalarga beriladigan dars, bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlashini e'tirof etganlar. Talaba o'qituvchining og'zaki ma'ruzasidan ko'ra, ko'rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirishiga ko'proq qiziqar ekan. Ana shunda ular etkazilayotgan mavzuni ko'proq yodida saqlab qoladi. Talabalarda bunday darslarga nisbatan qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Demak, deyarli barcha fanlarni o'qitishda bunday ilg'or usuldan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi.

Mediata'lim o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Mediapedagogika – yangi pedagogik texnologiya

hisoblanadi, u ommaviy axborot vositalari yordamida ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi.

Mediapedagogika resurslariga internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radioeshittirishlar, kino, video, audio materiallari kiradi.

1973-yilda YUNESKO qoshidagi kino va televideniya bo'yicha xalqaro kengash tomonidan video ta'lim "mediata'lim deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaralayotgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini egallash uchun nazariy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni tushunish lozim" qabilida qaralgan edi.

Bugungi kunga kelib multimedia vositalarining ta'limda qo'llashning keng imkoniyatlarga egaligi o'z tasdig'ini topib ulgurdi.

Ko'pchilik talabalar gohida noan'anaviy usulda o'tiladigan darslarni qiziqish bilan tinglaydilar. Axborot texnologiyalari yordamida o'tiladigan darslar jarayonida ana shunday usullardan foydalanishga imkon yaraladi. Bu ta'lim tizimini ham yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ya'ni, globallashtirish davri hamda unga monand axborotlashgan jamiyatda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, hayotga tayyorlash, turli axborotlarni qabul qilish, yaxshi va yomonni, oq bilan qorani farqlay olishga o'rganishdir.

Mutaxassislar fikricha, ta'lim axborotlashtirishi davlat ta'lim dasturini hayotga tatbiq etishning asosiy vositasi deb e'tirof etish mumkin.

Demak, mediata'lim asosida dars o'tayotgan o'qituvchi qanday veb-saytdan foydalanayotganini yaxshi bilishi kerak. Bunda o'sha veb-sayt ishonchli hamda asosli ekanini aniqlab olish lozim.

Ayrim manbalarda qayd etilishicha, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Fransiya kabi davlatlarda 60-yillardan boshlab mediata'limga alohida e'tibor qaratila boshlagan. Bu o'z navbatida o'qituvchi va talabalarga mediamadaniyat dunyosiga kirishga, ommaviy axborot vositalari tilini, mediamatnlarni tahlil qilishni o'rganishda yordam bergan.

Ayni paytda AQShda bir necha yirik mediata'lim markazlari faoliyat ko'rsatayotgani, bu hatto ta'lim standartlariga kiritilayotgani yaxshi ma'lum.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham mediata'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Butun jahonda globallashtirish jarayonlari jadal tus olgan bugungi kunda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari mamlakatimizda ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha ta'lim muassasalari kompyuterlar bilan ta'minlanmoqda. Bu texnologiya har soniyada millionlab vazifalarni bajarar ekan.

Bular orasida mediata'lim uchun xizmat qiladigan dasturlar ham talaygina. Demak, undan ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda ham samarali foydalanish davr talabidir.

Media bilan bog'liq atamalarni shartli ravishda 6 ta yo'nalishga ajratib o'rganish mumkin: televideniye, kino, radio, reklama, internet va yangi media, matbuot¹.

Texnik vosita, texnologiyalar:

- O'rgatuvchi;
- Sinovchi;
- Aloqa vositalari.

O'rgatuvchi vositalariga izohli lug'atlar, qidiruv vositalari, elektron o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalarning videokursi va shu kabilar, sinovchi vositalarga test savollari, o'z-o'zini tekshirish vositalari, aloqa vositalariga forumlar, pochta, audio va video kasseta va boshqalar kiradi.

O'qitishning media vositalari:

- elektron darsliklar;
- kompyuter topshiriqnomalari;
- multimediali elektron darsliklar;
- gipermatnli axborot-ma'lumot tizimlari;
- elektron arxivlar, elektron kataloglar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar;
- sinovchi va shakllantiruvchi trenajyor dasturlar.

Multimedia vositalarining keng imkoniyatlari, ayniqsa, ularning ovoz va tasvir

¹ «Словарь медиа-терминов». «Медиа Ресурсы Менеджмент» и издательство «Фолио» М. 2009.

bilan bog'liqligi fonetika o'qitishda juda qo'l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. –Toshkent, 2014.
2. Ikromova R., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. To'rtinchi sinf uchun darslik. –T.:O'qituvchi, 2004. -276 b.
3. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2005. –388 b.
4. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Azidov B. Ta'lim texnologiyasi. – T., 1999. – 71 b.